

**COMPARATIVE STUDY OF THE CULTURAL AND NATIONAL
CHARACTERISTICS OF MODERN UNITS OF ORAL SPEECH
(based on Uzbek and English language materials)**

Inobat Zoirovna NARZIYEVA¹
ESP Teacher of the Department of
Foreign Languages in Natural Sciences
Bukhara State University
inobat862@gmail.com

Abstract

The relevance of speech and culture in the present day is considered important in linguistics and its areas of study are becoming more and more comprehensive day by day. This article will highlight the important aspects of the study of culture and national characteristics in the study of modern units of oral speech. Currently, English is widely spoken in the world community. It is the language of Advanced Science and technology, trade and cultural relations, trade and business.

Key words: Units of speech, culture, national, linguistic, lingo cultural, language.

ZAMONAVIY OG`ZAKI NUTQ BIRLIKLARINING MADANIY VA MILLIY XUSUSIYATLARINI QIYOSIY TADQIQI (o`zbek va ingliz tili materiallari asosida)

Inobat Zoirovna NARZIYEVA¹
Buxoro Davlat universiteti
Tabiiy yo`nalishlarda chet tili
kafedrası o`qituvchisi
inobat862@gmail.com

Annatotsiya. Hozirgi kundagi nutq va madaniyatning bog`liqligi tilshunoslikda muhim hisoblanib, uning o`rganilish sohalari kundan kunga ko`lami kengayib bormoqda. Mazkur maqolada zamonaviy og`zaki nutq birliklarini o`rganishimizdagi madaniyat va milliy xususiyatlarini tadqiqining muhim jihatlari yoritib beradi. Hozirgi kunda dunyo hamjamiyatida ingliz tili keng tarqalgan. Bu ilg`or ilm-fan va texnika, savdo va madaniy aloqalar, savdo va biznes tilidir.

Kalit so`zlar: nutq birliklari, madaniyat, milliy, lingvokulturologik, lingvomadaniy , Lison

Ingliz tili ham diplomatiyaning asosiy tillaridan biri hisoblanadi. Tillarni o`rganish esa bevosita xalqlarni va millatlarni o`zaro bog`laydi hamda birgalikda hamkorlik aloqalarini olib borish uchun muhim vositadir. Biz bilamizki, til so`zlardan tashkil topadi. Til -tafakkurni shakllantirish va rivojlantirishga, borliq haqidagi bilimlarni xotirada qat`iy sistema sifatida saqlashga, axborot uzatish va qabul qilishga xizmat qiluvchi (birlamchi) ijtimoiy-ruhiy aloqa vositasidir. Shunga asosan, zamonaviy og`zaki tilimizdagi nutq birliklarining o`rganish esa bizni o`sha mamlakatni ham madaniy ham milliy xususiyatlarini o`rganishimizga uzviy bog`liqdir. Darhaqiqat, inson tili madaniyatning eng muhim xususiyati deb hisoblanishi mumkin, chunki insoniyatning murakkab madaniyati tilsiz mavjud bo`lmaydi va til madaniyatsiz mavjud bo`lmaydi. Ular ajralmasdir, chunki til madaniyatni kodlaydi va madaniyatning tarqalishi va avloddan avlodga o`tishi uchun vositalarni taqdim etadi. Odamlar tilda fikr yuritadilar va barcha madaniy tadbirlar til yordamida o`tkaziladi.

Zamonaviy og`zaki nutq birliklarining madaniy va milliy xususiyatlarini o`rganish qiyosiy tilshunoslikning lingvokulturologik jihatdan asosini tashkil etadi. Til va nutq dialektikasi ham nazariy tilshunoslikning, shuningdek, amaliy tilshunoslikning hamda psixologiya, falsafa, mantiq kabi fanlarning ham muhim va murakkab muammolaridan biri bo`lib, ayni masala tilshunoslikning doimiy diqqat markazida turgan va hozirda ham shunday. Lison tushunchasi- ma`lum bir jamiyatning barcha a`zolari uchun ajdodlar tomonidan tayyor holga keltirilib qo`yilgan, umumiy va majburiy, fikrni shakllantirish, ifodalash, uzatish va boshqa maqsadlar uchun xizmat qiladigan

vosita (birlik)lar hamda ularning o`zaro birikish qonunyatlarining ongdagi sistemasi.Ushbu ta`rifda tilning barcha insoniyat madaniyati uchun muhim ahamiyati ta`kidlangan.Shunday ekan ,til millat ko`zgusi hamda uni milliy shakllanganligi va madaniy merosga ega ekanligini ifodalovchi muhim vositadir.Biz bu so`zlarni anglagan holda ifodalaymiz,shunga ko`ra tillarni to`g`ridan to`g`ri tarjima qilinsada ularda ayrim milliylikni hamda o`sha tilda gapiruvchi jamiyatni madaniy xususiyatlarini ham inobatga olgan holda yondashishimiz eng muhim jihati hisoblanadi. Madaniyat markazi sifatida qaraladigan xalqning tili – bu tabiiyki, boshqa tillarda so`zlashadigan tillarga sezilarli ta`sir ko`rsatishi mumkin bu asosan ularning qay darajada yaqinligiga bog`liq. Tillar ham ,madaniyat kabi kam hollarda o`ziga yetarli bo`ladi. Tabiiy ravishda,bu jarayon bevosita yoki bilvosita xalqlar bilan munosabatda,savdo aloqalarida rivojlanadi. Agar biz tildan unumli foydalanmoqchi bo`lsak, u erda haqiqiy muhitni bilishimiz kerak. Ushbu atmosferada biz o`zimizni suvdagi baliq kabi his qilamiz.

Masalan,inglizcha“kelt,”cowboy”“canoe”so`zlari,do`ppi,belbog` ,atlas,qumg`on,paranji, so`ri kabi o`zbekcha so`z va tushunchalarni ifodalashda ko`pincha shu so`zni o`zi ishlatilib,ularni to`g`ridan to`g`ri tarjima qilib bo`lmaydi.Sozning semantik mazmunini bu yerda borliqning aynan bitta hodisasini ifodalovchi ma`no va so`zlarning mos kelmasligi kuzatiladi.Misol uchun ingliz tilida “sutka”,“qaynatilgan (dog`) suv”,“qaynona”,“qaynota”,degan tushunchalar mavjud emas.Ko`rsatilgan bu guruhga yana mazkur xalqning olamini his etishning o`ziga xos lisoniy manzarasini aks ettiruvchi so`zlar va tushunchalar ham kiradi.Misol uchun shimolda yashovchi xalqlarda qor juda ko`p nomlarga ega bo`lib,bu mazkur xalqlar hayotining tabiat sharoitlari bilan uzviy bog`liqligi bilan izohlanadi.Shuningdek,zamonaviy og`zaki nutq birliklarini madaniy va milliy xususiyatlarini tadqiq etishda muqobilsiz leksika ham ahmiyatlidir. Har bir tilda boshqa tillarda aniq tarjimasi bo`lmagan yetarli darajadgi so`zlar miqdori mavjud.Bu ikkita madaniyatni bir-biriga solishtirish paytida aniqlanadigan ekvivalentsiz (muqobilsiz) deb ataluvchi leksikadir.U asosan mazkur milliy madaniyatning o`ziga xos hodisalarini ifodalaydi. So`zlarni o`zlashtirish chog`ida muqobilsiz so`zlarni ekzotizmlar deb atashadi,ular nafaqt begona madaniyatni ifodalab ,ularning komponentlarini tashkil qiladi va izohlab beradi ,balki uni timsollantiradi.Misol uchun, spiker, shilling so`zlari Angliya madaniyati bilan,yaylov,qishloq,ariq so`zlari O`rta Osiyo mamlakatlarida istiqomat qiluvchi xalqlar bilan mustahkam bog`liqdir.

Xulosa qilib aytganda,har bir millat mavjud ekan u bilan bog`liq til ham mavjud va barhayotdir. Uning rivojlanishida jamiyatdagi insonlarni bir birlari bilan olib borgan munosabatlarida,ishlarida hamda madaniy va milliy meroslarimizni yuksaltirishimizda muhim jarayon hisoblanadi.

References

1. A.E.Mamatov. "Zamonaviy lingvistika", 2019, Toshkent.
2. Baxtiyor Mengliyev "Hozirgi o'zbek tili " 2018 , Toshkent.
3. Edward Sapir "Introduction to study of the speech" 1921, New York.
4. Axmedova A. Boshlang'ich sinflarda ingliz tili fanini o'qitishning zamonaviy usullari.
5. U.K. Mavlonova, R.A. Achilova. THE PROBLEM OF TRANSLATION OF REALIA (AMERICANISMS). Dostijeniya nauki i obrazovaniya, 5/59, 2020.
6. Восиева Ш. Инглиз ва ўзбек тилларида сўз яшаш усуллари.
7. Восиева Ш. Ахмедова А.Нарзиева И. "AFFIXATION AND ITS ROLE IN EXPRESSING NATIONAL AND TRADITIONAL FEATURES OF UZBEK LANGUAGE".
8. Mavlonova Ugiyoy Khamdamovna. Similarities and Differences between types of Comic // International Journal on Integrated Education. September 2020, Volume 3, Issue IX. <https://doi.org/10.31149/ijie.v3i9.596>
9. Mavlonova U.K., Makhmurova M.Kh., Kodirov T.D. DESCRIPTION OF ART MEDIA IN LITERATURE // LXIV International Correspondence Scientific and Practical Conference "EUROPEAN RESEARCH: INNOVATION IN SCIENCE, EDUCATION AND TECHNOLOGY» June 5-9, 2020. London, United Kingdom
10. Sharipova D.Sh , Mavlonova U.Kh., Ibatova N.I. BEHAVIORAL LANGUAGE ETIQUETTE IN UZBEK PROVERBS AND SAYINGS // ВЕСТНИК НАУКИ И ОБРАЗОВАНИЯ № 11(89). Часть 3. 2020. P: 51-53
11. Achilova R.A. "THE SEMANTIC VALUE OF ANTONOMASIA IN THE WORKS OF SHAKESPEARE". International Journal of Word Art. Volume 4, Issue 2. – Toshkent.,2021.- 6 p. ISSN 2181-9297
12. Achilova R.A. THE ROLE OF ANTONOMASIA IN THE PROSE OF ALISHER NAVOI. Scientific reports of Bukhara State University. Volume 6 - Bukhara., 2020.-188p.
13. Kodirov D. H. SPIRITUAL-MENTAL RESEARCHES OF ABU HAMID GHAZALI // European Journal of Research Development and Sustainability (EJRDS) – Vol. 2 No. 2, February 2021, -p. 73-74.

14. Qodirov D.H. THE PERIOD IN WHICH GHAZALI LIVED: THE SOCIO-POLITICAL SITUATION AND THE SPIRITUAL ENVIRONMENT//International Journal on Integrated Education. – 2020. – T. 3. – №. 9. – C. 108-111.
15. Qodirov D.H. GHAZALI AND DESCARTES: MODERN PHILOSOPHICAL DEVELOPMENT OF THINKING//Scientific Bulletin of Namangan State University, 2020. - №. 10., p. 256-260.
16. Kadirov D.H “AL-MAVAHIB US-SARMADIA” AND THE SOURCES GIVEN IN IT CONCERNING THE NAKSHBANDI TARIKAH// The Light of Islam: Vol. 2020 : Iss. 1 , Article 3., p.18-26.